

Date: 13<sup>th</sup>July-2025

**OMON MATJON IJODIDA DINIY-AXLOQIY MAVZUNING BADIY SINTEZI**

**Polvonnazarova Mashhura Shuxratovna**

**Annotatsiya:** Tezisda o'zbek adabiyotining yorqin vakili Omon Matjonning asarlarida dinimizning o'rni qay darajada ekanligi va uning asar badiiyatiga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** diniy obraz, iymon, nafs , badiiylik, sintez.

Adabiyot — xalq ruhiyatining, uning tarixi, e'tiqodi va qadriyatlarining badiiy aksidir. O'zbek adabiyotida diniy va axloqiy mavzular tarixan muhim o'rin tutgan bo'lib, bu yo'naliish XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yangi badiiy ifodalar bilan boyidi. Ayniqsa, mustaqillikdan so'ng ma'naviyatga e'tibor ortdi, diniy-falsafiy qarashlar adabiyotga erkin singa boshladi. Shu jarayonda Omon Matjon singari shoirlarning ijodi diniy-axloqiy tafakkurni badiiy sintezda ifoda etishning yorqin namunasi sifatida e'tirof etiladi.

Omon Matjon — o'zbek she'riyati olamida teran fikr, falsafiy mushohada va diniy-ma'naviy qadriyatlarni badiiy obrazlar vositasida yuksak darajada ifodalagan ijodkorlardan biridir. Uning she'rlerida sabr, tavba, tavakkal, iymon, qanoat, halollik, nafs bilan kurash, ma'rifat va haqiqat kabi tushunchalar asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. Bu mavzular shoirning ijodiy dunyoqarashi, hayotga va insoniyatga munosabati bilan uzviy bog'liq.

Shoir o'z asarlarida diniy obraz va timsollarni nafaqat islomiy tafakkur doirasida, balki ularni umuminsoniy qadriyatlardan darajasiga olib chiqishga harakat qiladi. 'Toqqa chiqmoq istar ko'ngil', 'Yovvoyi odam', 'Sharqda yulduzlar boshqacha' kabi asarlarida ruhiy iztirob, qalb uyg'onishi, ilohiy haqiqat izlanishi kabi motivlar ustuvorlik qiladi. Ayniqsa, shoirning falsafiy-fikriy yondashuvi orqali Qur'on oyatlari, tasavvufiy tafakkur unsurlari va xalqona hikmatlar zamonaviy hayot talqiniga moslashtirilgan holda ifodalanadi.

Shoir Omon Matjon ijodi doimo she'riyat bilimdonlari hamda tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lган va shu davrga qadar atroficha o'rganilgan. Omon Matjon ijodi xususida qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan, ayniqsa, shoir lirkasining o'ziga xos xususiyatlari , dostonlarining mavzu va g'oyasi, tarixiylik kontseptsiyasi haqida tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Shoир lirkasidagi o'ziga xos ohanglar, badiiylik, an'anaviyliy va zamonaviylik xususiyatlari haqida qator ilmiy ishlar e'lon qilingan va hozir ham bu ijod barchani o'ziga jalb qilmoqda. Jumladan, U.Normatov, I.G'afurov, N.Karimov, N.Rahimjonov, I.Haqqul, S.Meli, U.Hamdam va boshqalar shoir she'riyatining turli qirralari xususida ilmiy ishlar e'lon qilganlar.

Adabiyotshunos J.Jumaboeva o'z monografiyasida Omon Matjonning «Pahlavon Mahmud» dramatik dostoni haqida fikr yuritib, unda bosh qahramon obrazi uch yo'naliishda – pahlavon, shoir va oshiq sifatida talqin etilganini ko'rsatdi va asarga yuqori baho beradi .

Tadqiqotchi O'.Panaevaning nomzodlik dissertatsiyasida O.Matjon dostonidagi Pahlavon Mahmud siyoshi tarixiylik kontseptsiyasi nuqtai nazaridan tahlil etilib, u

Date: 13<sup>th</sup>July-2025

mukammal adabiy-tarixiy xarakter namunasi bo'lsa ham tasavvuf ta'limotidan anchayin yiroq tasvirlangani ta'kidlanadi

Omon Matjonning she'riyati sof lirizm, milliylik va badiiy umumlashmalar orqali o'zbekona dunyoqarashni yuksak darajada namoyon qiladi. Diniy-axloqiy mavzular shoir ijodida targ'ibot shaklida emas, balki obraz va timsollar orqali estetik ta'sir kuchiga ega bo'lgan badiiy vositalar bilan beriladi. Uning "Munojot", "Zaminning sadosi", "O'zimni topgim keladi" kabi she'rlarida inson va Yaratuvchi o'rtasidagi ruhiy bog'liqlik, tavba va ixlosning badiiy talqini juda nozik va ta'sirli ifodalananadi.

Shoir o'z ijodida diniy va axloqiy tushunchalarni birlashtirgan holda badiiy-falsafiy sintez yaratadi. Bu sintez nafaqat diniy e'tiqodga asoslangan, balki insoniy ma'naviyat, ijtimoiy ong, ruhiy poklanish kabi zamonaviy tushunchalarni ham qamrab oladi. Shu jihatdan, Omon Matjon ijodi bugungi yoshlar ma'naviy tarbiyasida, milliy g'urur va qadriyatlar targ'ibotida muhim manba bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, Omon Matjon diniy-axloqiy mavzuni o'z ijodining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirib, bu mavzuni o'ziga xos poetik uslubda, chuqur falsafiy mulohazalar va ramziy obrazlar vositasida yoritgan. Uning asarlarida diniy e'tiqod, insoniy axloq va badiiy tafakkur uzviy uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Bu jihatlar Omon Matjon ijodini nafaqat adabiy, balki ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham o'rganishga arzigelik.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -Toshkent: O'qituvchi, 2001. - 556 b.
- 2.Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.-Toshkent, "O'zbekiston", 2008, 533 b.
- 3.Normatov U.Ko'ngillarga ko'chgan she'riyat.-Toshkent.2006.42 b.